

DOI: [https://dx.doi.org/ 10.51788/tsul.rols.2023.7.1./OOKA3692](https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.1./OOKA3692)
UDC: 343(045)(575.1)

JINOYATGA SUIQASD QILISHNING SUBYEKTIV TOMONI

Kamalova Dildora Gayratovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-6747-8883
e-mail: d.kamalova@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyatga suiqasd qilish, uning subyektiv belgilari yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va sud amaliyoti materiallari asosida tahlil qilingan. Egri qasddan va ehtiyotsizlikdan sodir etiladigan jinoyatlarga suiqasd qilish mumkin emasligi muallif tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida isbotlangan. Aybdor shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashi, ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetishi va shunday oqibatlar kelib chiqishini istashi tufayli jinoyatga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasd orqali ifodalanishi asoslantirilgan. Shuningdek, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (JK 98-moddasi), zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish (JK 100-moddasi) kabi subyektiv tomonining o'ziga xos jinoyatlariga suiqasd qilish masalasi ilmiy qarashlar va sud hukmi tahlili asosida tadqiq etilgan. Shu bilan birga, jinoyatga suiqasd qilish subyektiv tomonining motiv, maqsad va emotsiya kabi belgilari, JK Maxsus qismida mazkur belgilar nazarda tutilgan hollarda, albatta, sodir etilgan qilmishda mazkur belgilarni aniqlash zarurligi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jinoyatga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasddan sodir etilishi masalasida amaldagi jinoyat qonunchiligiga o'zgartirish kiritish zarurati keltirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatga suiqasd qilish, to'g'ri qasd, egri qasd, ehtiyotsizlik, motiv, maqsad, affekt, jinoiy javobgarlik.

СУБЪЕКТИВНАЯ СТОРОНА ПОКУШЕНИЯ НА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

Камалова Дилдора Гайратовна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
декан факультета уголовного правосудия
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье покушение на преступление, его субъективные признаки анализируются на основе концептуальных подходов, научно-теоретических взглядов и материалов судебной практики, имеющих в юридической науке. Доказывается на основании сделанных автором выводов невозможность преступлений, совершенных одновременно со злым умыслом и по неосторожности. Обосновано, что пособничество и подстрекательство к преступлению выражается только в прямом умысле, в связи с тем, что виновный осознает общественно опасный характер своего деяния, видит общественно опасные последствия и желает, чтобы такие последствия наступили. Также на основе исследования научных взглядов и судебных решений анализируется вопрос о покушении на субъективную сторону таких конкретных преступлений, как умышленное убийство в состоянии сильного психического

возбуждения (статья 98 УК), умышленное убийство за пределами необходимой обороны (статья 100 УК). При этом были изучены признаки субъективной стороны покушения на преступление, такие как мотив, цель, эмоция, и упрощена необходимость выявления этих признаков в совершенном деянии в тех случаях, когда эти признаки предусмотрены в Особенной части Уголовного кодекса. По результатам исследования доказана необходимость внесения изменений в действующее уголовное законодательство с учетом того, что покушение на преступление совершается только с прямым умыслом.

Ключевые слова: покушение на преступление, прямой умысел, косвенный умысел, неосторожность, мотив, цель, аффект, уголовная ответственность.

THE SUBJECTIVE SIDE OF ATTEMPTED CRIME

Kamalova Dildora Gayratovna,

Dean of the Faculty of Criminal Justice,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article analyzes the attempted crime, and its subjective features on the basis of the conceptual approaches available in legal science, scientific and theoretical views, as well as materials of judicial practice. Based on the recommendations developed by the author, the impossibility of attempted crimes committed with indirect intent and negligence is proved. It is substantiated that an attempted crime can be expressed only through direct intent, since the perpetrator is aware of the socially dangerous nature of his act, foresees socially dangerous consequences and wishes these consequences to occur. Also, based on the analysis of scientific views and sentences of the courts, the issue of the possibility of committing such crimes with the peculiarities of the subjective side of crimes as intentional killing in heat of passion (Article 98 of the Criminal Code) and intentional killing in excess of self-defense (Article 100 of the Criminal Code). At the same time, such signs of the subjective side of an attempted crime as motive, purpose, and emotion have been studied, and it is substantiated, in cases where these signs are provided by the Special Part, the need to identify such signs in the committed act. According to the results of the study, it has been proved that there is a need to amend the current criminal legislation that an attempted crime is committed only with direct intent.

Keywords: criminal attempt, direct intent, indirect intent, negligence, emotion, purpose, affect, criminal liability.

Kirish

Jinoyat kodeksining asosiy vazifasi inson, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlashdan iboratdir. Ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etayotgan shaxs o'zi ko'zlagan jinoiy maqsadini amalga oshirish uchun zarur harakatlarni amalga oshiradi va jinoiy natija kelib chiqishini istaydi. Biroq obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, ayrim hollarda shaxs istagan oqibat-natija yuz bermasligi mumkin. Bunday hollarda muayyan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinmagan, shaxs, jamiyat va

davlat manfaatlariga daxl qilinmagan, bevosita zarar kelib chiqmagan bo'lsa-da, shaxsning qilmishida ijtimoiy xavflilik xususiyati mavjud hisoblanadi. Jinoyat qonunining vazifasi esa ijtimoiy munosabatlarga nafaqat zarar yetkazilgan, balki zarar yetkazish xavfi mavjud bo'lgan hollarda ham muhofaza qilishdir. Aynan shuning uchun jinoyat qonunining 14-moddasi 2-qismida mazkur tamoyil mustahkamlangan va O'zbekiston qonunchiligida tamom bo'lmagan jinoyat – jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksiga ko'ra, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi.

Suiqasd jinoyat sodir etishga bevosita yo'naltirilgan hamda shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan, qasddan sodir etilgan harakat (harakatsizlik) yoki konkret jinoyat tarkibi obyektiv belgilarida ko'zda tutilgan, bevosita jinoyat sodir etishga qaratilgan harakat (harakatsizlik)ni bajarishning boshlanishidir.

Jinoyatga suiqasd qilishning huquqiy asosi 25-moddada belgilanganligiga qaramay, mazkur ta'rifni to'laqonli deya olmaymiz. Suiqasd qilishning obyektiv va subyektiv belgilari to'liq qamrab olinmaganligini xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida xulosa qilishimiz mumkin.

Aynan shuning uchun mazkur maqolada jinoyatga suiqasd qilishning subyektiv belgilari, jumladan, ayb shakli, maqsad, motiv, emotsiyalar yuridik fanda mavjud bo'lgan ilmiy-nazariy qarashlar, konseptual g'oyalar va sud amaliyoti materiallari asosida tahlil qilinadi.

Material va metodlar

Mavzuni tadqiq etishda analiz va sintez, deduksiya va induksiya, mantiqiylik, jinoyat ishlari kabi tadqiqot usullari qo'llangan.

Mavzu yuzasidan o'zbek olimlaridan M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyev, E.O. Turg'unboyev, O.A. Yusupjanov; xorijiy olimlardan D.Y. Porotikov, A.A. Anisimov, A.I. Sitnikova, M.I. Yakubovich, A.G. Babichev, S.N. Bezugliy, A.G. Nazarenko, A.Y. Reshetnikovning ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat kodeksida jinoyatga suiqasd qilishning subyektiv tomoni qasd orqali ifodalanganligi sababli aksariyat olimlar ham to'g'ri, ham egri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda suiqasd qilish bosqichi mavjud bo'ladi, degan nuqtayi nazarni qo'llab-quv-

vatlaydilar. Xususan, O.A. Yusupjanovning fikriga ko'ra, "muayyan jinoiy natijaga erishishga qaratilgan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyatga suiqasd faqat qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda mavjud bo'ladi [1]".

Shuni ta'kidlash kerakki, Jinoyat Kodeksining 25-moddasi mazmuniga ko'ra, jinoyatga suiqasd qilish qasddan sodir etiladi. Ammo O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-sonli qarorida "qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasd bilan sodir etilishi mumkin, chunki bunda aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, jabrlanuvchining o'limiga ko'zi yetgan va uning o'limini istagan bo'ladi, biroq o'lim aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra (jabrdiydaning faol qarshiligi, boshqa shaxslarning aralashuvi, jabrlanuvchiga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatilganligi va h.k. tufayli) yuz bermaydi" [2], degan tushuntirish berilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, Oliy sud Plenumining mazkur qarori Jinoyat kodeksi moddasiga nomuvofiq hisoblanadi. Shu o'rinda jinoyatga suiqasd qilish qasdning qaysi shakli orqali sodir etiladi; egri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarga suiqasd qilish mumkinmi, degan savollar tug'ilishi tabiiy.

Jinoyat huquqi doktrinasi va sud amaliyotida jinoyatga suiqasd qilish egri qasddan sodir etilmasligi qayd etiladi. Shu bilan birga, aksariyat kriminalist olimlar (V.N. Nekrasov, P.F. Grishanin, Y.A. Demidov, B.V. Zdravomisllov, N.F. Kuznetsova, V.V. Lyass, A.V. Naumov, D.Y. Porotikov, M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyev) mazkur jinoiy faoliyat egri qasddan sodir etish imkoniyatini rad etgan holda faqat to'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarga suiqasd qilish mumkin, deb ta'kidlaydilar [3–6].

N.N. Baymakovanning fikriga ko'ra, "Jinoyatga suiqasd qilish jinoyatga tayyorgarlik ko'rish kabi aniq jinoiy natijaga erishish maqsadiga

yo'naltirilgan faoliyat hisoblanganligi tufayli faqat to'g'ri qasdda namoyon bo'ladi" [7]. "Suiqasdnning subyektiv belgisi uning faqat to'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda bo'lishi bilan ifodalanadi. Aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligini angelaydi va sodir etishni istaydi (formal tarkibli jinoyatlar) yoki shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligini angelaydi, ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetadi va shunday oqibatlar kelib chiqishini istaydi (moddiy tarkibli jinoyatlarda)" [8].

Jinoyatga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasddan sodir etilishini A.A. Anisimov quyidagicha isbotlashga harakat qilgan: "Jinoyatga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasddan sodir etiladi, ya'ni konkret jinoyatni sodir etishga yo'naltirilgan maqsadli faoliyat hisoblanadi. Jinoyat sodir etishni boshlagan aybdor uni mantiqiy yakuniga yetkazishni istaydi. Shaxs konkret jinoyatni sodir etishni xohlaydi. Uning obyektiv tomonini qisman amalga oshiradi (moddiy tarkibli jinoyatlarda), jinoiy oqibat yuz berishiga ko'zi yetadi va jinoyatni oxirigacha yetkazish (moddiy tarkibli jinoyatlarda jinoiy oqibat yuz berishi)ni istaydi. Jinoyatga suiqasd qilayotgan shaxs konkret jinoyat tarkibining barcha elementlarini angelaydi, biroq, shu bilan birga, qasdning to'la amalga oshirilmaganligini tushunadi" [9]. Shunga o'xshash fikr M.V. Grin tomonidan ham bildirilgan: "Jinoyatga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Jinoyatga suiqasd qilish aniq maqsadga yo'naltirilgan jinoiy faoliyat hisoblanib, faqat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Suiqasd subyektiv tomonining o'ziga xos xususiyati shundaki, qasd bilan jinoyat tarkibining barcha elementlari qamrab olinadi, biroq shaxs uning qasdi oxirigacha amalga oshirilmaganligini angelaydi" [10].

Demak, yuqorida bildirilgan fikrlarga qo'shimcha sifatida shuni aytish joizki, jinoyatga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasddan sodir etiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shaxs qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini angelaydi; ijtimoiy xavfli oqibat yuz

berishini istab, jinoyat sodir etishni boshlaydi; muayyan harakat yoki harakatsizlik amalga oshiriladi, biroq shaxsga bog'liq bo'lmagan obyektiv holatlarga ko'ra shaxs istagan jinoiy oqibat yuz bermaydi yoki ijtimoiy xavfli qilmish to'liq bajarilmaydi. To'g'ri qasd egri qasddan irodaviy xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Egri qasdda ijtimoiy xavfli oqibat yuz berishi mumkinligini anglasa-da, oqibat yuz berishini istamaydi, unga ongli ravishda yo'l qo'yib beradi. Faqat moddiy tarkibli jinoyatlarga egri qasddan sodir etilishi mumkin. Shunday ekan, shaxs muayyan oqibat yuz berishini istamasdan harakat qilib, jinoiy qilmish oxirigacha yetkazilmagan hollarda, jinoiy javobgarlik yuz bermaydi. Oqibatni istamasdan harakat qilish mumkin emas. Ijtimoiy xavfli qilmish egri qasddan sodir etilmaydi. Egri qasd faqatgina jinoiy huquqiy oqibatlar yuz bergandagina namoyon bo'ladi va jinoiy huquqiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun qasddan sodir etilgan va yuz bergan ijtimoiy xavfli oqibatga nisbatan egri qasddan munosabatda bo'lgan qilmish sifatida so'z yuritish o'rinli hisoblanadi. Demak, egri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichi mavjud bo'lmaydi.

Mazkur masala yuzasidan E.O. Turg'unboev tomonidan bildirilgan quyidagi fikr o'rinli hisoblanadi: "Egri qasddan sodir etiladigan jinoyatlar faqat moddiy tarkibli jinoyatlarda bo'lib, aybdor ijtimoiy xavfli oqibatlariga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda egri qasddan sodir etiladigan bo'lsa, agar sodir etilgan qilmish kvalifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan jinoiy oqibatni keltirib chiqarmasa, qilmishda jinoyat tarkibi bo'lmaydi. Demak, egri qasddan sodir etiladigan jinoyatlar har doim oqibat talab qiladi. Agar aybdor egri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda faktik xato qilsa, bunday xato jinoyatni suiqasd deb topishga asos bo'lmaydi" [8].

Yuqorida bayon etilgan holatlardan kelib chiqib, fikrimizcha, jinoyatga suiqasd qilish

tushunchasining ta'rifida uning subyektiv tomoni faqat to'g'ri qasd orqali ifodalanishi mumkinligi alohida ko'rsatilishi lozim. Shuning uchun JKning 25-moddasida ifodalangan "qasd" tushunchasi o'rniga "to'g'ri qasd" tushunchasi qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Affekt holatida sodir etiladigan jinoyatlar-da jinoyatga suiqasd qilish bosqichi mavjud bo'lishi mumkin, chunki shaxs kuchli ruhiy hayajonlanish holatida harakat qilar ekan, aqli raso shaxs hisoblanib, ya'ni qilmishi-ning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglaydi va boshqara oladi. Fiziologik affekt shaxsning xulq-atvori ustidan boshqarish qobiliyatini susaytiradi, biroq aqli rasolikni istisno etmaydi. Shuning uchun jinoyatga suiqasd qilishning alohida turi sifatida affekt holatidagi qasd turini ajratish lozim. Suiqasd qilishning mazkur turining boshqa turlaridan farqi shundaki, jinoyatni oxiriga yetkazmaganlik sabablari sodir etilgan tajovuzning puxta tayyorlanmaganligi hisoblanadi.

Quyidagi sud hukmini misol tarqasida keltirish o'rinli.

2019-yilning 20-iyul kuni soat 17:30 lar-da 1976-yilda tug'ilgan Yakkabog' tumani hokimi o'rinbosari M.T. "Hisor Sarlochin" MChJga tegishli savdo do'konlarini buzish ishlarini tashkillashtirayotgan vaqtda mazkur jamiyatda ishlovchi B.I. o'ziga tegishli savdo do'koni buzilishiga faol qarshilik ko'rsatib, uning yuz qismiga yelim idishda bo'lgan benzin yoqilgisini sepib, yoqib yuborgan.

Mazkur misolda quyidagi holatlarga e'tibor qaratish o'rinli.

Hokim yordamchisi M.T. ekskavatorga o'tirib, savdo do'konini buzish maqsadida ekskavator tumshug'ini B.I.ning do'koniga qaratib burib, bir necha marta zinaning temir ustuni va do'kon devoriga qarata urgan. Shu vaqtda B.I. qo'liga yelim idish olib, ichidagi suyuqlik (benzin)ni M.T. o'tirgan ekskavatorga qarata bir necha marta sepkan va cho'ntagidan zajigalka olib, uni yondirgan holatda ekskavator tomonga qarata otgan. Shu vaqtda M.T.ning yuz-qo'li yona boshlagan va

olov yongan holatda o'zini yerga tashlagan. Keyin odamlar uni ushlab olib, ustiga mato yopishgan va olovni o'chirishgan.

Qashqadaryo viloyati prokuraturasi tomonidan B.I.ga nisbatan Jinoyat kodeksining 25-, 97-moddasi 2-qismi "g, l" bandlari bilan ayb e'lon qilinib, jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Tergov davomida o'tkazilgan sud psixologiya ekspertizasining xulosasiga ko'ra, ayblanuvchi Bahriddin Isomovning mazkur jinoyatni sodir qilgan vaqtda kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo'lganligi aniqlanib, unga nisbatan e'lon qilingan ayblov JKning 25-, 98-moddasiga qayta malakalangan. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tuman sudi hukmi bilan B.I. O'zbekiston Respublikasi JK 25-, 98-moddasi bilan aybli deb topilib, unga 2 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan.

Mazkur holat yuzasidan nazariyotchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan.

Jumladan, professor B. Axrarovning fikriga ko'ra, "Ushbu sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish ikkala holatda ham noto'g'ri kvalifikatsiya qilingan. B.I. shaxsiy mulki, uning ichida bo'lgan oila a'zolari va boshqa shaxslarning hayotini saqlab qolishga bo'lgan zaruriy mudofaa huquqidan foydalangan. Hokim yordamchisi tomonidan jinoiy tarzda B.I.ning shaxsiy mulki, oila a'zolari va ishchilarining hayoti va sog'lig'iga xavfli bo'lgan usulda tajovuz qilingan vaqtda B.I. benzin sepib yuborish harakatlari orqali o'zining mol-mulki, oila a'zolari va binoda bo'lgan boshqa ishchilarining hayoti va sog'lig'ini jinoiy tajovuzlardan saqlab qolgan. JKning 98-moddasi talabiga ko'ra, jinoiy oqibat (jabrlanuvchining o'limi) sodir bo'lmagan, ikkinchidan, ayblanuvchida kuchli ruhiy hayajonlanish jabrlanuvchining sodir etgan qilmishi oqibatida, ya'ni harakati tugaganidan so'ng kelib chiqishi kerak edi, biroq bunday bo'lmagan. B.I.ning harakati JKning 37-moddasida ta'kidlangan "... yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof ta-

jovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat"ga mos keladi. Faqat u zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqan yoki chiqmaganligini aniqlash lozim" [11].

Advokat B. Mamirovning fikriga ko'ra, "mazkur sodir etilgan harakatlar JK 106-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur. Chunki JK 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun odam o'limi sifatidagi oqibat kelib chiqishi kerak. Ayni holatda kelib chiqqan oqibat og'ir tan jarohati yetkazish uchun javobgar bo'lishi lozim. Affekt holati to'satdan yuz bergani sababli maqsad odam o'ldirish deb topish mumkin emas, ayni vaziyatda hokim o'rinbosarini o'ldirish imkonsiz bo'lgan" [11].

Shuni ta'kidlashimiz kerakki, haqiqatan ham, affekt holatida sodir etiladigan qasddan odam o'ldirish va zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoyatlari o'xshash. Chunki mazkur ikkala holatda ham aybdor shaxs jabrlanuvchining huquqqa xilof harakatiga nisbatan jinoyat sodir etadi. Biroq zaruriy mudofaa holatida sodir etiladigan odam o'ldirishda jabrlanuvchi aybdor yoki boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mulkiga nisbatan tajovuzni amalga oshiradi va natijada aybdorning qilmishi tajovuzning darajasiga nomuvofiq bo'ladi.

Yuqoridagi holatni uchta asosiy tarkibiy qismga ajratib tahlil qilish mumkin:

1) jabrlanuvchi M.T. tomonidan aybdorning ruhiy hayajonlanish holatini yuzaga keltirgan g'ayriqonuniy qilmish (mulkini nobud qilish) sodir etilishi;

2) jabrlanuvchining bu qilmishi natijasida B.I.da fiziologik affekt holati yuzaga kelib, buning natijasida aybdor jabrlanuvchini o'ldirishga qaratilgan harakat (benzinni sepish va zajigalka yoqish)ni amalga oshirishi;

3) o'zga shaxslarning yordami natijasida aybdor istagan jinoyat oqibat (o'lim) yuz bermasligi.

Demak, suiqasd qilmishning obyektiv tomoni bevosita boshlanib, shaxs istagan oqibat (o'lim) o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga

ko'ra yuz bermagan. Fikrimizcha, mazkur jinoyat ishi sud hukmi bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilingan va qonuniy jazo chorasi tayinlangan.

Yuqoridagilar asosida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish jinoyatlarida jinoyatga suiqasd qilish bosqichi mavjud bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelish o'rinli.

Bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan A.G. Babichev quyidagi fikrlarni bildirgan: "Affekt holatida sodir etiladigan odam o'ldirish jinoyatlari quyidagi xususiyatlar bilan ifodalanadi: 1) affekt doim to'satdan yuzaga keladi va boshqarish imkoniyatini istisno etadi. Affektning aniq belgilari ekspert-psixolog yoki psixiatr tomonidan aniqlanadi; 2) ruhiy jihatdan sog'lom insonda affekt holati odatda hayotida bir marotaba yuzaga keladi; 3) affekt holati jabrlanuvchi tomonidan birinchi marta sodir etilgan yoki uzoq muddat davom etgan g'ayriqonuniy harakatiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin va aybdorning ruhiy holatida namoyon bo'ladi; 4) affekt holati qisqa muddatda shiddatli davom etib, mazkur harakatlar sodir etilganidan so'ng shaxsda uyqu, holsizlik holati yuzaga keladi. Umumiy qilib aytganda, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilayotgan vaqtda affekt holatida ekanligi kompleks sud-psixologiya, sud-psixiatriya ekspertizasi orqali aniqlanishi zarur" [12]. Haqiqatan ham, "kuchli ruhiy hayajonlanish holati (affekt)da sodir etilgan jinoyatlar sud-psixiatriya ekspertizasining shaxsning haqiqatda jinoyat sodir etish vaqtida affekt holatida bo'lganligi xulosasi asosida mavjud bo'ladi" [13, 114-b.].

Insonning psixologik faoliyati, affekt holatda sodir etiladigan jinoyatlarning subyektiv tomoni subyektning ruhiy holati va xulq-atvorida namoyon bo'lgan emotsiyalar bilan bog'liq. Shaxsning qilmishida yetarli daraja anglamaslik, tizimsizlik, tartibsizlik namoyon bo'ladi [12].

Yuridik adabiyotlarda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish va badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir

shikast yetkazish jinoyatlariga suiqasd qilish mumkinligi masalasiga turlicha yondashiladi. Ayrim mualliflar (S.V. Borodin, V.F. Kirichenko, N. Zagorodnikov, N.F. Kuznetsova) fikriga ko'ra, mazkur turdagi jinoyatlarga suiqasd qilish mumkin [10]. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishda mudofaalanish natijasida yuz bergan oqibat aybning ehtiyotsizlik shakli bilan ifodalanadi, shuning uchun javobgarlik yuz beradigan oqibatga ko'ra kelib chiqadi. A.I. Sitnikova fikriga ko'ra, "mudofaalanuvchi shaxs tajovuz qilayotgan shaxsni hayotdan mahrum qilish niyatida harakat qilgan, biroq yuz bergan holatga ko'ra qasдини oxirigacha amalga oshirmagan bo'lsa, shaxs zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlikka tortiladi. Bunday hollarda aybdorning qasdini isbotlash murakkab. Biroq qurol natijasida yuz bergan jarohat, sovuq qurol natijasida ko'krak qafasi, bosh miya jarohatlanishi va boshqa hayot uchun muhim a'zolarining shikastlanishi qasdning yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Aksariyat hollarda o'z vaqtida ko'rsatilgan tibbiy yordam o'lim fakti yuz bermasligiga olib keladi" [14].

Jinoyatga suiqasd qilishning subyektiv tomonini tahlil etishdagi muammoli savollardan yana biri affekt holatida sodir etiladigan jinoyatlarda jinoyatga suiqasd qilish bosqichining mavjudligi masalasidir. Jinoyat qonunchiligi yoki jinoyat huquqi nazariyasida mazkur masala huquqiy jihatdan tartibga solinmagan. Bu borada N.F. Kuznetsova quyidagi fikrni bayon etgan: "Jinoyatga suiqasd qilishning subyektiv tomoni to'g'ri konkretlashgan qasd, shuningdek, to'g'ri affektlashgan va alternativ qasd hisoblanadi" [15]. Affekt holatidagi qasdning paydo bo'lish vaqti shaxs ruhiy holatida affekt holatining paydo bo'lish bilan bog'liq. Jabrlanuvchi tomonidan qilingan og'ir haqorat, g'ayriqonuniy zo'rlik yoxud boshqa g'ayriqonuniy harakatlar tufayli to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida paydo bo'lganligi tufayli ijtimoiy xavfli qilmish shaxsga bog'liq bo'lma-

gan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmasligi ham mumkin. Faqat moddiy tarkibli jinoyatlarga affektlashgan qasd orqali sodir etiladi. Bunday holda aybdor kuchli ruhiy hayajonlanish holatida muayyan ijtimoiy xavfli oqibat yuz berishini istab harakat qiladi, ammo ijtimoiy xavfli oqibat unga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra yuz bermaydi. Demak, affekt holatidagi qasdda jinoyatga suiqasd qilish bosqichi mavjud bo'lishi mumkin.

Jinoyatga suiqasd qilishning subyektiv tomon belgilaridan yana biri jinoiy maqsaddir. Shaxsning maqsadi tamom bo'lgan jinoyatni sodir etishga qaratilgan bo'lib, ayrim hollarda shaxsning harakati natijasida u ko'zlamagan boshqa oqibat kelib chiqishi mumkin. Bunday hollarda qilmish jinoyatlar jami qoidasi asosida kvalifikatsiya qilinishi tufayli jinoiy maqsad to'g'ri aniqlanishi zarur. A.Y. Reshetnikovning ta'kidlashicha, "jinoyatga suiqasd qilish faqat to'g'ri qasddan sodir etilar ekan, muayyan natijaga erishishni ko'zlamasdan shaxs unga erishishga suiqasd qilishi ham mumkin emas. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish subyektiv tomonining muqarrar belgisi sifatida shaxsda obyektiv tomoni JK Maxsus qismi tegishli moddasining dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etish maqsadining mavjudligi amal qiladi. Bunda suiqasd qaysi jinoyatga nisbatan sodir etilganiga qarab, mazkur suiqasd tarkibining muqarrar belgisi – maqsadning mazmuni ham o'zgarishi mumkin" [16].

S.N. Bezugliy fikriga ko'ra, tamom bo'lmagan jinoyat aybning qasd, aynan to'g'ri qasd shakli orqali ifodalanishi tufayli konkret maqsad – jinoyat sodir etish maqsadi mavjudligini inkor etmaydi. Suiqasdning subyektiv tomonida ham JK Maxsus qismida ifodalangan zaruriy belgilar – motiv, maqsad va h.k. mavjud bo'lishi lozim [13, 109-b.].

Xulosalar

Jinoyatga suiqasd qilishning subyektiv tomoni ikkita belgi bilan ifodalanadi:

1. Shaxsda jinoyatni sodir etishga qaratilgan to'g'ri qasdning mavjudligi. Shaxsning harakat yoki harakatsizligi JK Maxsus qismi-

da nazarda tutilgan muayyan jinoyatni sodir etishga qaratilgan bo'lib, u qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglaydi, mazkur harakat (harakatsizlik)ni bajarish va oxirigacha yetkazishni istaydi. Yoki shaxsning qasdi ijtimoiy xavfli zararining yuz berishi mumkin-

ligi yoki muqarrarligiga ko'zi yetishi va yuz berishini istashi;

2. Shaxsning maqsadi – to'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyatni bajarishga bevosita qaratilgan harakatlar (harakatsizlik)ni bajarish va jinoyatni oxiriga yetkazish.

REFERENCES

1. Yusupdjanov O.A. Murakkab aybli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari [Problems of qualification of serious crimes]. PhD thesis. Tashkent, 2010, p. 134.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami [Collection of decisions of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan]. 1991–2006. 2nd vol. Tashkent, Justice. 2006, p. 192.
3. Porotikov D.Yu. Neokonchennoye prestupleniye: teoriticheskiye modeli, zakonodatel'nyye konstruksii i problemy ikh primeneniya [Unfinished Crime: Theoretical Models, Legislative Constructions and Problems of Their Application]. PhD thesis. Moscow, 2007, p. 197.
4. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Ilm Ziyo Publ., 2010, 248 p.
5. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, Nasaf Publ., 2010, p. 261.
6. Protsenko S.V. K voprosu o pokushenii na ubiystvo [On the issue of attempted murder]. *Russian Investigator*, 2011, no. 21, p. 20.
7. Baymakova N.N. Moment okonchaniya prestupleniya [The end of the crime]. PhD thesis. Moscow, 2011, p.153.
8. Turg'unboyev E.O. Qilmishni jinoyatga suiqasd deb kvalifikatsiya qilish asoslari [Grounds for qualifying a crime as an attempt to commit a crime]. *Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan*, 2008, no. 5, p. 37.
9. Anisimov A.A. Neokonchennoye prestupleniye i osobennosti ikh dokazyvaniya [Unfinished crimes and features of their proof]. PhD thesis. Voronezh, 2003, p. 48.
10. Neokonchennoye prestupleniye [Unfinished crime]. Encyclopedia of criminal law. Vol. 5. Ed. Malinin. St. Petersburg, 2010, p. 42.
11. Hokim o'rinbosarini yoqib yuborgan yakkabog'lik tadbirkor – ozodlikda! [A from businessman Yakkabog' who set fire to the deputy mayor is at liberty!]. Available at: <http://advokatnews.uz/xabar/1668.html/>.
12. Babichev A.G. Prestupleniya protiv zhizni: teoretiko-prikladnyye problemy i doktrinal'naya model' ugovornogo zakona [Crimes against life: theoretical and applied problems and a doctrinal model of criminal law]. PhD thesis. Kazan, p. 258.
13. Bezuglyy S.N. Otvetstvennost' za neokonchennoye prestupleniye po ugovornomu zakonodatel'stvu Rossiyskoy Federatsii: problemy teorii i praktiki [Responsibility for an unfinished crime under the criminal legislation of the Russian Federation: problems of theory and practice]. PhD thesis. Belgorod, 2017, p. 114.
14. Nazarenko A.G., Sitnikova A.I. Neokonchennoye prestupleniye i yego vidy [Unfinished crime and its types]. Moscow, Os'-89, 2003, pp. 41–42.
15. Kurs ugovornogo prava [Course of criminal law]. General part, vol.1. The Doctrine of Crime. Eds. N.F. Kuznetsova and I.M. Tyazhkova. Moscow, Zertsalo-M Publ., 2002, pp. 370–371.
16. Reshetnikov A.Yu. Pokusheniye na prestupleniye v rossiyskom ugovornom prave [Attempted crime in Russian criminal law]. PhD thesis. Moscow, 2007, p. 39.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 1-son

VOLUME 7 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.1.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.03.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,8 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 12.

TDYU tipografiyasida chop etildi.